TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SUYUNOVA BARNO SAFARALI QIZI

YAPONIYA TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO YO'NALISHI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO'K: 327(520)+(543)
KBK: 66,4(Yapo)+(543)

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (PhD) по политологии

Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences

Suyunova Barno Safarali qizi
Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo'nalishi 3

Суюнова Барно Сафарали кизи
Центральноазиатское направление во внешней политике Японии 21

Suyunova Barno Safarali kizi
Central Asian direction in Japan's foreign policy 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SUYUNOVA BARNO SAFARALI QIZI

YAPONIYA TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO YO'NALISHI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ss497 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Madaminova Durdona Iskandarovna** siyosiy fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Karimova Natalya Ermanovna** tarix fanlari doktori, professor
	Elmurodov Eldorjon Shodiyorovich siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Sc.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "3" may soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24;; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (82 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil "18" aprel dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

O.I. Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.S. Sultonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko‘pqutblilikka asoslangan xalqaro munosabatlar tizimi shakllanib borishi sharoitida milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tartibga solish borasidagi murakkabliklar davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning holatiga chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, globallashuv jarayonidagi o‘zgarishlar shiddati davlatlararo aloqalarni mustahkamlash orqali taraqqiyotga erishish masalasini siyosiy jihatdan o‘rganishni talab etmoqda. Alohida ta’kidlash kerakki, yetakchi davlatlar geosiyosiy va geostrategik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan davlatlar va mintaqalar ustidan o‘z ta’sirini kengaytirishga intilayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyo va Yaponiya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yaponshunoslik sohasida faoliyat olib boruvchi olimlar va xalqaro miqyosdagi tadqiqot markazlarining tadqiqot obyekti sifatida Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati alohida o‘rin egallab kelmoqda. Bu borada Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan ilk bor ilgari surilgan “C5+1” formati doirasidagi ko‘p tomonlama yondashuvining kompleks tarzda tadqiq etish, uning keyingi muloqot platformalari uchun prototip sifatida xizmat qilishi borasidagi ilmiy qarashlarni ishlab chiqish, shuningdek, Yaponiyaning mintaqaviy siyosatida “taraqqiyot orqali demokratiya”ni qo‘llab-quvvatlashidan kelib chiqqan holda, uning tashqi siyosati va doktrinalarini tadqiq etish hamda Markaziy Osiyo strategiyasining o‘ziga xos jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar safi tobora kengayib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonning barpo etilishida ilg‘or jahon tajribasini e’tiborga olgan holda, jahonning yetakchi davlatlari, xususan Yaponiya bilan o‘zaro ishonch va manfaatlarga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli, dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Yaponiyaning vaqt sinovidan o‘tgan, ishonchli va strategik sherik ekanligini hisobga olgan holda, ikki tomonlama muloqot doirasida erishilgan kelishuvlar o‘zaro munosabatlarning kelgusi rivojida yangi davrni boshlab, sheriklik aloqalarimizning yangi yo‘nalishlarini belgilab bergan deb hisoblaydi: “Yaponiya O‘zbekiston uchun doimo vaqt sinovidan o‘tgan, ishonchli va strategik sherik bo‘lib qoladi. 2019-yildagi O‘zbekiston-Yaponiya sammiti doirasida erishilgan kelishuvlar ikki mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda yangi davrni boshlab, sheriklik aloqalarimizning yangi yo‘nalishlarini belgilab berdi”[1].

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-fevral, PF-60-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabr, PF-5876-son), “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasida ushbu mamlakatda chop etiladigan “Nikkei” gazetasiga bergan “O‘zbekiston o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun ochiqdir.” mavzusidagi intervyusi // Xalq so‘zi, 2019 yil 19 dekabr, № 262 (7492)

ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-aprel, PF-5400-son) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019-yil 28-dekabr, PQ-4553-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680-son) qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma`rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosatiga oid asosiy yondashuvlarini o‘rganish va mintaqa davlatlarining mazkur davlat tashqi siyosatidagi o‘rni va rolini aniqlashda Tashqi ishlar vazirligi tomonidan har yili nashr etiladigan “Moviy kitob”lar hujjatli asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki va ko‘ptomonlama hamkorlik aloqalarining xususiyatlari, xususan, Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish sohasidagi ahamiyati JICAning yillik hisobotlari hamda siyosatshunos ekspertlar, yaponshunos olimlarning mamlakatimiz va xorijda chop etgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari va internet materiallari asosida o‘rganib chiqildi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlarni uchta yirik guruhga ajratish mumkin:

*Birinchi guruh*ni Yaponiya rasmiy vakillari, olim va ekspertlarining mulohazalari aks etgan adabiyotlar, ingliz va yapon tilidagi monografiya va ilmiy maqolalar hamda ommaviy axborot vositalari manbalari tashkil etadi. Ularning jumlasiga J.Ikeda, A.Kavato, T.Inoguchi, M.Tadokoro, K.Yamamoto, K.Shimizukabi, T.Kazuhiko, M.Shimizu, K.Otsuka, T.Jida, C.Len, U.Tomohiko, H.Tetsuya K.Karasava, A.Miyashita, Y.Sato va U.Takeshi[2] kabi yaponshunos olim va ekspertlarini kiritish mumkin.

*Ikkinchi guruh*ni zamonaviy davrda Yaponiyaning xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni, tashqi siyosiy faoliyatining nazariy-konseptual asoslari, Yaponiyaning Markaziy Osiyoga qaratilgan siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan mahalliy olimlarning asarlari tashkil qiladi. Ulardan O.Alimov, S.Azizov, T.Dadaboyev, E.Elmurodov, F.Hoshimov, G.Karimova, Z.Kasimova, M.Rahimov, A.Saidov, A.Sharapov, A.Umarov, Z.Zaripova[3] kabi siyosatshunos va tarixchi olimlarning asarlarida ushbu mavzu atroflicha o‘rganilgan.

---

[2] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

[3] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

Jumladan, S.Azizovning dissertatsiyasida 1920-1990-yillardagi O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ilmiy-madaniy va iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etgan. A.Sharapov tomonidan esa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining O‘zbekiston bilan munosabatlarini qiyosiy tahlili o‘tkazilgan. O.Alimovning tadqiqotlari Yaponiyaning Sharqiy Osiyodagi energetika xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarida energetika omilining tutgan o‘rniga qaratilgan. Z.Kasimovaning ilmiy ishlarida Yaponiyaning davlat ijobiy imidjini shakllantirishdagi sa’y-harakatlari, “yumshoq kuch”dan foydalanish usullari va O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarida xalq diplomatiyasining o‘rni alohida o‘rganilgan. G.Karimova esa, asosan, Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. F.Hoshimov va M.Rahimovlar Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni tadqiq etgan bo‘lsa, Yaponiyada o‘z faoliyatini olib boruvchi vatandoshimiz T.Dadaboyev[4] Yaponiyaning Markaziy Osiyo bo‘yicha manfaatlari, o‘zaro munosabatlari hamda istiqbolda kutilayotgan natijalar yuzasidan izlanishlar olib borgan.

*Uchinchi guruh*ga Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlardagi tadqiqotchilarining ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Ularning sirasiga E.Alekseyevenkova, A.Dissyukov, O.Dobrinskaya, S.Jukova, A.Karabayeva, K.Korneyev, D.Men, B.Miteva, N.Murashkin, B.Nazarmuhamedov, M.Nurgaliev, I.Razumovskiy, R.Sadykova, N.Shaymardanova, T.Shaymergenov, D.Taldybayeva, I.Timonina va Y.Zaxaryev kabi olimlar[5]ni kiritish mumkin. Jumladan, S.Jukova tomonidan Markaziy Osiyoning jahon neft va tabiiy gaz bozoridagi o‘rni yuzasidan izlanishlar olib borilgan. JICA Ogata Sadako tinchlik va taraqqiyot bo‘yicha tadqiqot markazida faoliyat yuritgan rossiyalik tadqiqotchi N.Murashkin tomonidan esa, Yaponiya tashqi siyosati, Yaponiya va yangi Ipak yo‘li hamda Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi faoliyatiga doir bir qator monografiya va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Shuningdek, E.Alekseyevenkova, A.Dissyukov, A.Karabayeva, D.Men, B.Miteva, B.Nazarmuhamedov, M.Nurgaliev, R.Sadykova, T.Shaymergenov, N.Shaymardanova va D.Taldybayevalar Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlarining tutgan o‘rni, Taraqqiyotga rasmiy yordam doirasidagi tashqi siyosatining ta’siri, “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formatining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qilganlar. Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ta’sir qiluvchi energiya va Afg‘on omili O.Dobrinskaya, K.Korneyev, I.Razumovskiy, I.Timonina va Y.Zaxaryev kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Biroq o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili, mahalliy olimlarning siyosiy fanlar doirasidagi ilmiy ishlarida Yaponiya tashqi siyosatida aynan Markaziy Osiyo yo‘nalishini tadqiq etishga oid masalalar kompleks tarzda va yetarlicha tizimli tadqiq etilmaganligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jahonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda ularning Markaziy Osiyo davlatlari ravnaqiga bo‘lgan

[4] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.
[5] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

ta'siri sharoitida Yaponiya bilan hamkorlik masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar safini kengaytirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo'nalishining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yaponiya tashqi siyosatining institutsional-nazariy asoslarini o'rganish;

zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Yaponiyaning tutgan o'rnini ochib berish;

Markaziy Osiyoga qaratilgan Yaponiya tashqi siyosatining rivojlanish bosqichlariga baho berish;

Yaponiyaning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini qiyosiy tahlil qilish;

energetika diplomatiyasining Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar rivojida tutgan o'rnini aniqlash;

mintaqa davlatlari bilan Yaponiyaning o'zaro munosabatlarida Afg'on omilining tutgan o'rni hamda Afg'onistonda tinchlikni o'rnatish bo'yicha mazkur davlatning yondashuvlarini o'rganish;

Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi doirasidagi hamkorlik aloqalari genezesini tizimli tahlil qilish;

"Markaziy Osiyo+Yaponiya" muloqoti doirasida munosabatlar rivoji va istiqbollarini belgilash;

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlar rivoji va istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yaponiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyoga qaratilgan yo'nalishi va uning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Yaponiya va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama munosabatlar, ularga ta'sir qiluvchi omillar, "Markaziy Osiyo+Yaponiya" muloqoti hamda Yaponiyaning mintaqadagi "Taraqqiyotga rasmiy yordam" dasturi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, kontent va ivent-tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yaponiya o'z tarixida amalga oshirgan militarizm uslublaridan hozirgi kunda tamomila voz kechib, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish, hududiy yaxlitlik va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari hamda Yaponiyaning

"dunyo – bir oila" tamoyiliga asoslangan tashqi siyosiy yondashuvi patsifizm konsepsiyasiga ko'ra asoslab berilgan.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro munosabatlari rivojiga muhim ta'sir ko'rsatgan nodir metallarga bo'lgan ehtiyojning ortishi va energetika resurslari bilan bog'liq omillar mintaqadagi transport va logistika tarmog'ining keng rivojiga xizmat qilishi, energetika resurslari savdosi, transport infratuzilmasining barpo etilishi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini takomillashtirishga qaratilgan tashqi siyosati "resurs diplomatiyasi" asosida isbotlangan.

Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo respublikalarining barqaror iqtisodiy-ijtimoiy o'sishiga ko'maklashish maqsadida mintaqaning har bir davlatiga nisbatan ishlab chiqilgan "o'zaro hamkorlik siyosati" maqsadli loyihasi doirasida belgilab olingan ustuvor yo'nalishlar va Yaponiyaning rivojlanayotgan davlatlar taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategiyasi Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi asosida dalillangan.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi strategik hamkorlik aloqalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi va uning "Markaziy Osiyo+Yaponiya" ko'p tomonlama formati orqali rivojlanish tendensiyalarida Yaponiyaning mintaqa davlatlari qishloq xo'jaligi, transport-kommunikatsiya, xavfsizlik, ekologiya, yashil energiya va turizm sohasidagi tizimli muammolarini hal qilishga ko'maklashish maqsadlarini inobatga olgan holda, "Katta Markaziy Osiyo+Yaponiya" hamkorlik muloqotini tashkil etish taklifi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining tutgan o'rni tahlil qilinib, ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga doir taklif va tavsiyalar ilgari surilgan;

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, shuningdek, turizm, transport infratuzilmasi va investitsiya sohasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida ODA dasturini amaliyotga keng joriy qilish taklifi ilgari surilgan, sohaga doir ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan "Markaziy Osiyo+Yaponiya" formatiga doir nazariy-pragmatik yondashuvlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tadqiqot mavzusiga doir davlat rahbarlarining nutqlari, Tashqi ishlar vazirliklari tomonidan taqdim qilingan rasmiy ma'lumotlar, birlamchi ilmiy manbalardan foydalanilgani, ularning ilmiy muomalaga kiritilgani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilinganligi va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, mintaqaviy siyosiy jarayonlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muasasalari va sohaga oid

muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida, "Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari", "Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari" "Xalqaro munosabatlar", "Mintaqashunoslik", "O'rganilayotgan mintaqa mamlakatlari xalqaro munosabatlari" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo'nalishi" bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo respublikalarining barqaror iqtisodiy-ijtimoiy o'sishiga ko'maklashish maqsadida mintaqaning har bir davlatiga nisbatan ishlab chiqilgan "o'zaro hamkorlik siyosati" maqsadli loyihasi doirasida belgilab olingan ustuvor yo'nalishlar va Yaponiyaning rivojlanayotgan davlatlar taraqqiyotini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategiyasi Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi asosida dalillangani xususidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan tahliliy materiallarni tayyorlashda foydalanildi. *(Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 22-noyabrdagi 16506-sonli dalolatnomasi).* Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro munosabatlari rivojiga muhim ta'sir ko'rsatgan nodir metallarga bo'lgan ehtiyojning ortishi va energetika resurslari bilan bog'liq omillar mintaqadagi transport va logistika tarmog'ining keng rivojiga xizmat qilishi, energetika resurslari savdosi, transport infratuzilmasining barpo etilishi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini takomillashtirishga qaratilgan tashqi siyosati "resurs diplomatiyasi" asosida isbotlangani borasidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi Yaponiya parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha guruhning ish rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi tomonidan berilgan 2024-yil 23-oktabrdagi 04/6-10-2512-sonli dalolatnomasi*). Natijada, dissertatsiyadagi xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Yaponiya o'z tarixida amalga oshirgan militarizm uslublaridan hozirgi kunda tamomila voz kechib, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish, hududiy yaxlitlik va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari hamda Yaponiyaning "dunyo – bir oila" tamoyiliga asoslangan tashqi siyosiy yondashuvi "patsifizm" konsepsiyasiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar tashkil etishda, ikki tomonlama hamkorlik to'g'risidagi tahliliy materiallar tayyorlashda, shuningdek, madaniy-ma'rifiy sohadagi tadbirlarni tashkil etishda foydalanildi *(O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy*

mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2024-yil 9-iyuldagi 14-07-1135-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va xulosalar Yaponiya va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan manfaatli ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilgan.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi strategik hamkorlik aloqalarining jadal sur`atlarda rivojlanishi va uning "Markaziy Osiyo+Yaponiya" ko'p tomonlama formati orqali rivojlanish tendensiyalarida Yaponiyaning mintaqa davlatlari qishloq xo'jaligi, transport-kommunikatsiya, xavfsizlik, ekologiya, yashil energiya va turizm sohasidagi tizimli muammolarini hal qilishga ko'maklashish maqsadlarini inobatga olgan holda, "Katta Markaziy Osiyo+Yaponiya" hamkorlik muloqotini tashkil etish taklifi va ilmiy xulosalaridan TDSHUda bajarilgan IL-5221091507 "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O'zbekistonning tashabbuslari asosida)" loyihasi doirasida Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligining siyosiy va iqtisodiy masalalarini yoritishda foydalanilgan *(Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024-yil 28-iyundagi 01-04-01/1445-sonli ma'lumotnomasi).* Natijada, davlatlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni muvofiqlashtirishda manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (ulardan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 152 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog'liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Yaponiya tashqi siyosatini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida Yaponiya tashqi siyosatining nazariy asoslari va tasnifi, asosiy yo'nalishlari, xalqaro munosabatlarga oid yapon olimlarining qarashlari, Yaponiyaning Markaziy Osiyo mintaqasiga yo'naltirilgan tashqi siyosatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari nazariy-konseptual asosda tahlil qilingan. XX asrning ikkinchi yarmida dunyo sahnasida Yaponiya o'z xalqining mehnatsevarligi va iqtisodiy o'sish sur'atining yuqoriligini namoyon qila oldi. 2020-yilda yuz bergan pandemiyaning global iqtisodiyotga ko'rsatgan salbiy ta'siriga qaramay, Tokio jahonda investitsion gigant sifatidagi yetakchilik maqomini saqlab qoldi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda yalpi milliy daromad (5,3 trillion AQSh dollari[6]) va yalpi ichki mahsulot (4,2 trillion AQSh dollari[7]) hajmiga ko'ra, Yaponiya dunyoda uchinchi, yillik eksport hajmi (850 milliard AQSh dollari[8]) bo'yicha esa to'rtinchi o'rinni egallagan. Bugungi kunda Yaponiya avtomobil sanoati, zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar bo'yicha dunyoda yetakchilik qilib kelmoqda. Ayni paytda, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan ko'p tomonlama diplomatiyani yuritish borasidagi Yaponiya tajribasi namuna sifatida tilga olinmoqda.

Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining 2022-yildagi Moviy kitobi – "Diplomatic bluebook"da Yaponiyaning zamonaviy davrdagi tashqi siyosati quyidagicha tavsiflanadi: "Xalqaro hamjamiyat o'zgarishlar va muammolarni hal qiluvchi davrga duch kelgan ekan, Yaponiya turli mamlakatlar va mintaqalar bilan hamkorlik qilib, o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida diplomatiyani rivojlantirishi kerak. Yaponiya Ikkinchi jahon urushi tugaganidan beri tinchliksevar davlat yo'lidan izchil borib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va xalqaro hamjamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarga inson xavfsizligi tamoyili asosida rivojlanish bo'yicha hamkorlikni ta'minlashdan tashqari, Yaponiya xalqaro qoidalarni ishlab chiqish va

[6]Gross national income ranking table based on the World Bank Atlas method. Dec 21, 2023 // https://datacatalog.worldbank.org/search/dataset/0038127/GNI-ranking--Atlas-method

[7] Gross domestic product ranking table. Dec 21, 2023 // https://datacatalog.worldbank.org/search/dataset/0038130/GDP-ranking

[8] Top Exporters, Import Trade and Tariff by country 2021. //https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/WLD/Year/LTST/TradeFlow/Import/Partner/by-country/

rivojlanayotgan mamlakatlarda salohiyatni oshirishni qo‘llab-quvvatlash orqali global muammolarni, jumladan, Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishishni hal qildi”[9].

Yaponiya, shuningdek, qurolsizlanish, yadroviy qurollarni tarqatmaslik va xalqaro tinchlik o‘rnatish sa’y-harakatlariga hissa qo‘shdi. Yaponiya tashqi siyosatida yadroviy qurolsizlanish masalasi davlat tashqi siyosatining “umrboqiy missiyasi”ga aylangani bois, doimiy ravishda yadroviy qurolga ega davlatlar rahbarlarini yadroviy qurolsiz dunyo sari taraqqiyotni jadallashtirishga da’vat etib keladi. Sobiq Bosh vazir F.Kishida BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi chog‘ida dunyo miqyosidagi yadroviy qurollar va ularni tarqatmaslik borasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida, xorijiy davlatlarning ilmiy tadqiqot institutlari qoshida yangi “Yadroviy qurolsiz dunyo uchun Yaponiya kafedrasi”ni tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan va uni moliyalashtirish maqsadida 3 milliard iyena hajmidagi mablag‘ni ajratishga tayyor ekanligini ma’lum qilgan[10].

Yaponiya Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining (BRM) asosiy tamoyiliga asoslanib, “inson qadr-qimmati” himoya qilinadigan, xavfsiz dunyoni amalga oshirish uchun “Hech kimni yolg‘iz qoldirmang” (Leave no one behind) diplomatiyasini davom ettiradi[11].

XX asr oxiridan bugungi kunga qadar Yaponiyaning tashqi siyosiy faoliyati “Yevroosiyo diplomatiyasi”, “Erkinlik va farovonlik yoyi”, “Global diplomatiya” va “Hind-Tinch okeani” doktrinalari bilan belgilab kelingan.

Hozirgi vaqtda Yaponiya tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: AQSh bilan ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish; qo‘shni davlatlar – Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va Shimoliy Koreya bilan barqaror munosabatlarni saqlash; iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirish; Global Janub[12] bilan hamkorlik; global muammolarni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik.

1990-yillarning oxirida Bosh vazir Keizo Obuchi tomonidan “inson xavfsizligi” (human security, *ningen anzen*) tamoyili ilgari surildi va u Yaponiya tashqi siyosatining asosiy ustuni sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, 1998-yil dekabr oyidan boshlab, “inson xavfsizligi” atamasi Yaponiya hukumati leksikonining bir qismiga aylanib ulgurgan edi[13].

2001-yilda global miqyosda terrorizmga qarshi kurash boshlanganda Yaponiya Bosh vaziri Junichiro Koidzumining tashabbusi bilan AQSh boshchiligidagi aksilterror kompaniyasiga sodiqligini namoyish etish maqsadida “patsifizm” (pacifism, *heiwa*) tamoyili qabul qilingan. Keyinchalik Shinzo Abe, Yasuo Fukuda va Taro Asolarning hukumatni boshqargan yillarida mazkur tamoyil yanada

---

[9] Diplomatic Bluebook 2022//https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/2022/pdf/en_index.html

[10] Statement summary by Fumio Kishida, Prime Minister of Japan. 19 September 2023. //https://gadebate.un.org/en/78/japan

[11] 第 213 回国会における上川外務大臣の外交演説 令和 6 年 1 月 30 日 (Foreign Policy Speech by Foreign Minister Kamikawa to the 213th Session of the Diet. January 30, 2024) // https://www.mofa.go.jp/fp/pp/pageite_000001_00141.html

[12] “Global janub” iborasi keng ma’noda Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika mintaqalariga nisbatan ishlatiladi. Bu atama, asosan, Yevropa va Shimoliy Amerikadan tashqarida joylashgan kam daromadli va ko‘pincha siyosiy yoki madaniy jihatdan past darajadagi hududlarni bildiradi.

[13] Takemi K. Presentation for Session I: Evolution of the Human Security Concept. Health and Human Security: Moving from Concept to Action-Fourth Intellectual Dialogue on Building Asia's Tomorrow. – Tokyo: Japan Center for International Exchange, 2002. – P. 42.

takomillashtirildi. Shu tariqa, Yaponiya o'zini tinchlik va barqarorlikning faol kurashchisi sifatida namoyon qila boshladi. Bugungi kunda Yaponiya tashqi siyosiy faoliyatida "inson xavfsizligi" va "patsifizm" tamoyillariga amal qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyaning Markaziy Osiyoga yo'naltirilgan tashqi siyosiy faoliyatini 3 ta bosqichga bo'lish mumkin: 1) 1992-1997-yillar; 2) 1997-2004-yillar; 3) 2004-yildan hozirgacha. E'tiborga molik jihati shundaki, Yaponiya mintaqada "taraqqiyot orqali demokratiya"ni qo'llab-quvvatlaydi. Yaponlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaviy taraqqiyotga erishish mumkin, deb hisoblaydilar[14]. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, Yaponiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi manfaatlari 1990-2000-yillarda, asosan, Ipak yo'li bo'ylab energiya resurslarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib[15], u *"shigen gaiko"* – *"resurs diplomatiyasi"*[16] nomi bilan yuritiladi. Boshqa manbalarda esa, u *"energiya diplomatiyasi"* sifatida tilga olinadi[17].

Tadqiqot ishining **"Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi bobi Yaponiyaning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari, energetik diplomatiyasining xususiyatlari va o'zaro aloqalar rivojiga Afg'on omilining ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida mintaqaning har bir davlati o'ziga xosligini ko'rish mumkin. Qozog'iston va O'zbekiston bilan strategik hamkorlik doirasida, Qirg'iziston bilan iqtisodiy, madaniy va inson resurslarini rivojlantirishda, Tojikiston bilan, asosan, iqtisodiy va gumanitar yordam bo'yicha, Turkmaniston esa iqtisodiy va ishlab chiqarishda o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirib kelmoqda.

1990-yilning oxirlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilk "inson resurslarini rivojlantirish markazi" Qirg'izistonda ochilgan bo'lsa, yapon hukumatidan birinchi ODA yordamini olgan davlat Qozog'iston (1993-yilda 300 million dollar miqdorida) hisoblanadi. O'zbekistondagi birinchi Prezident tomonidan olib borilgan "bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish" modeli yaponlar tomonidan eng yaxshi model sifatida e'tirof etilgan[18].

1992-yildan 2004-yilga qadar Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi Markaziy Osiyo davlatlarini postsovet tarkibiga kirgan yangi mustaqil davlatlarning bir qismi sifatida talqin qilinganligi sababli ular bilan Yangi mustaqil davlatlar bilan ishlash bo'limi orqali munosabatlarni muvofiqlashtirgan. 2004-yilga kelib, Markaziy Osiyo va

---

[14] Dadabaev T. Models of cooperation in Central Asia and Japan's Central Asian engagements: Factors, determinants and trends //Japan's silk road diplomacy: Paving the road ahead. – 2008. – C. 130-131.

[15] Dadabaev T. Japan as no "other": Decolonizing Alternative for Central Asia? // Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program, Joint Center. – 2021. – P. 5.

[16] Murashkin N. Japan and Central Asia: Do Diplomacy and Business Go Hand-in-Hand? – Paris: Center for Asian studies. –2019. – P. 28.

[17] Dadabaev T., Shinohara K., Djalilova N. A Review of the Japanese Corporate Presence in Central Asia: Two Waves of Japanese Business Entry into the Central Asian Region //Central Asian Affairs. – 2023. – T. 1. – № aop. – P. 3.

[18] Karabayeva A. Japan in Central Asia //Central Asia in a Multipolar World: Internal Change, External Actors, Regional Cooperation. – 2024. – P. 379.

Kavkaz bo'yicha alohida bo'lim tashkil etildi[19] va shundan buyon bu bo'lim orqali mintaqaga doir siyosat olib borilmoqda.

Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida hal etilmagan xalqaro muammolar yo'qligi siyosiy aloqalarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilayotgan ijobiy omillardan biridir. Tokio ham bu davlatlar bilan munosabatlarda salbiy qarashga ega emas. Tokio uchun mintaqadagi barcha davlatlar BMTni isloh qilish bo'yicha o'z pozitsiyasini baham ko'rishi va Yaponiyaning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zoligiga nomzodini qo'llab-quvvatlashi nihoyatda muhim. O'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari ham ushbu nufuzli kuch ularga global va mintaqaviy tuzilmalarda ko'rsata oladigan yordamdan manfaatdor. Mintaqa davlatlarining Yaponiya bilan munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdorligi uning mintaqalararo hamkorlikni faol rag'batlantirishi bilan ham bog'liq.

Yaponiya an'anaviy ravishda Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan energetika siyosatini "resurs diplomatiyasi" tamoyili asosida olib bordi. 2010-yildagi Senkaku voqeasi tufayli Xitoy-Yaponiya munosabatlarining yomonlashishi va 2011-yil 11-martda sodir bo'lgan Fukusima AES falokati Noda hukumatini o'zining resurs diplomatiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Shundan keyin "resurs diplomatiyasi" Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatining asosiy ustuniga aylandi. Endilikda, hamkorlikning asosiy yo'nalishi neft va tabiiy gaz sohalaridan uran qazib olish va nodir metallar sohalariga o'tdi. 2012-yilda Sumitomo va Kazatomprom tomonidan tashkil etilgan Summit Atom Rare Earth Company (SARECO) qo'shma korxonasi Stepnogorskda o'zining birinchi zavodini ochdi va pilot loyihaga 30 million dollar sarmoya kiritdi[20].

Qirg'iziston va Tojikiston esa Yaponiyaning tashqi energetika siyosati tarkibiga kiritilmagan, chunki mazkur davlatlarda birlamchi energiya resurslari kam.

Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida ham Afg'on omili muhim masala sifatida doimo muhokama qilib kelinadi. Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va qayta qurish uchun AQShdan keyin ikkinchi yirik donor davlat sifatida Yaponiya afg'on xalqi hayotini o'zgartirishda muhim rol o'ynadi.

Hozirgi kunga qadar Yaponiya tashabbusi bilan Afg'onistonga yordam ko'rsatish bo'yicha Tokioda 8 marta (2002, 2003, 2006, 2007, 2008, 2009, 2012, 2014-yillarda) konferensiya tashkil etildi. Yaponiya tomonidan mezbonlik qilingan konferensiyalar xalqaro hamjamiyat uchun "Yangi Afg'oniston uchun Tokio jarayoni" deb nomlanishi mumkin bo'lgan afg'onlar orasidagi muloqotni ma'naviy qo'llab-quvvatlash uchun platforma bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Professor Daisaku Higashi Yaponiyaning Afg'onistondagi faoliyatini tahlil qilib, Yaponiya global hamkorlik va muvofiqlashtirish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan izchil siyosat olib borayotganini ta'kidlaydi[21].

Xususan, Yaponiya xalqaro tashkilotlar orqali Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning bir qismi sifatida,

---

[19] Takeshi Y. Japan's multilateral approach toward Central Asia //Eager Eyes Fixed on Slavic Eurasia. – 2007 – T. 1. – P. 75.

[20] Currie A. Japanese Firm Opens Rare Earth Plant. Nov. 12, 2012. //https://investingnews.com/daily/resource-investing/critical-metals-investing/rare-earth-investing/japanese-firm-opens-rare-earth-plant/

[21] Higashi D. Humanitarian Crisis after the Collapse of the Afghan Government and Japan's Role. 04-05-2022 // https://www.jiia.or.jp/en/column/2022/04/global-issues-fy2021-05.html

Afg‘oniston bilan chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlariga chegara hududlarini qo‘riqlash, transport-logistika tizimini yaxshilashda yordam ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratadi. Yaponiya neft mahsulotlariga qaram bo‘lganligi va shu maqsadda G‘arbiy va Markaziy Osiyo bilan munosabatlarga kirishishda, transport koridori sifatida Afg‘onistonning geosiyosiy ahamiyati yuqori ekanligi tufayli u bilan aloqalarini saqlab qolishga intiladi. Shuning bilan birgalikda, Yaponiya dunyoning eng muhim muammolarini hal qiluvchi davlatlar qatoridan o‘z o‘rnini yo‘qotmaslik uchun butun afg‘on siyosatidan voz kechmaydi. Bir muncha vaqt o‘tgach, Afg‘oniston Yaponiya uchun tashqi siyosatda yangi marralarni qo‘lga kiritish vositasiga aylanishi mumkin.

Yaponiyaning Tolibon bilan 1990-yillarda ham, 2001-yildan keyin ham aloqalari tarixi hozirgi vaziyatda Tokioga Kobul bilan samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradigan asos yaratdi[22]. Yaponiyaning Afg‘onistondagi mavjudligi noharbiy xususiyatga ega ekanligi butun xalqaro hamjamiyat uchun va Afg‘onistonda ijobiy imidj yaratishga yordam berdi. Yaponiyaning mazkur xususiyati va “iqtisodiy rivojlanish orqali demokratiyaga o‘tish” konsepsiyasi orqali Tolibon bilan muzokaralar olib borishi AQSh harbiy qismlarini olib chiqib ketganidan keyin ham mintaqadagi rolini saqlab qolishda yordam berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dissertatsiyaning **“Yaponiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo‘nalishi: imkoniyatlar va istiqbol”** deb nomlangan uchinchi bobida Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida ODA dasturining ahamiyati, “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formatining o‘ziga xos jihatlari va rivojlanish tendensiyalari hamda Yaponiya va O‘zbekiston munosabatlarining rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan.

Markaziy Osiyo Rossiya, Xitoy, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan o‘rab olingan bo‘lib, ushbu mintaqaning barqarorligi va rivojlanishi butun Yevroosiyo uchun, jumladan, Yaponiyaning rivojlanishi va barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yaponiya erkin va ochiq Markaziy Osiyo mintaqasida davlat qurilishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa qonun ustuvorligiga asoslangan xalqaro tartib tamoyillari takomillashishiga, shuningdek, barqaror rivojlanishning o‘sishiga imkon beradi.

Yaponiyaning mintaqa davlatlariga ko‘rsatayotgan yordami, asosan, JICA orqali Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi (ODA) asosida olib boriladi.

JICA Yaponiyaning Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi doirasidagi loyihalarni boshqarish vazifasini bajaruvchi birlashgan ma’muriy agentlik bo‘lib, dunyoning turli mintaqalarida rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi dunyodagi eng yirik ikki tomonlama yordam agentliklaridan biridir. Yaponiya ODA yordamining uchta asosiy toifasi mavjud bo‘lib, ular: iyena asosidagi kreditlar, foizsiz grantlar va texnik yordamdir.

Mintaqa davlatlari uchun ODA xayriyalarining birinchisi 1993-yilda 2,57 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2008-yilda bu ko‘rsatkich 108,48 million

[22] Dobrinskaya O. Japan’s Role in the Postconflict Reconstruction of Afghanistan: Motives and Implications //MJIR: Malaysian Journal of International Relations. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 109.

